# 6-Mavzu To‘qimachilik, paxta tozalash va yengil sanoat korxonalarini mashina-jixozlarini montajini texnologik jarayonlari.

**Reja:**

**6.1. Ishlab chiqarishda montaj turlari.**

**6.2. Servisda texnologik jarayon va montajni vazifalari.**

**6.3. Ishlab chiqarishda montaj ishlarini.**

## 6.1. Ishlab chiqarishda montaj turlari.

Mashina-jixozlarni montaji-ishlab chiqarish jarayonlarini qurishda va ishlab turgan sexlarni qayta jixozlashda muxim bosiqichlardan biridir. Yangi, turli maxsulotni vaqtida ishlab chiqarishda va texnologik jixozlarni ishlashini ta’minlashda montaj katta rol o‘ynaydi.

## 6.1. Montajni ishlab chiqarishdagi tomonlari

Jixozlarni montaj qilish vaqtida bir vaqtda qurilish ishlarini, metallokonstruksiyalarni, quvurlarni, energota’minlashni, nazorat vositalarini, avtomatizatsiya ishlarini, snitar-texnik qurilmalarni, vetilyatsiyalarni joylanadi.

Montaj ishlab chiqarishini so‘nggida joylashtirilgan texnologik qatorlar, moslamalar, butun boshli sanoat komplekslari ekspluatatsiyaga tayyorlab topshiriladi.

Montajga mexnat vositasini joylarda maxkamlash, ularni transportirovka qilish, yig‘ish ishlariga esa mexnat vositalarini maxkamlash vash u atrofda mexnat vositalarini transportirovka qilish kiradi.

Sanoat o‘zini turliligi Bilan ajralib turadi va doimo yangilanib turadi.

Montajda maxsus ko‘tarish-tashish vositalari, traktorlar, treylerlar, elektrik lebyodkalar, manipulyatorlar, maxsus mexanizxatsiyalashgan va qo‘l asboblarini va nazorat o‘lchash asboblarini ko‘plari keng qo‘llaniladi.

Montajda xar xil usullardan foydalaniladi. Bunda uzoq vaqtda turli texnologik jarayonlar amalga oshiriladi.

Asosan montajda: detal, yig‘ish birligi, texnologik jixoz, kompleks, montaj bloki, texnologik qator, texnologik vosita, asbob va boshqa birliklar ishlatiladi va ulardan foydalaniladi.

## 6.2. Servisda texnologik jarayon va montajni vazifalari

**Montaj ishlari** uch turli qurilish montaj ishlarini birini tashkil qiladi: qurilish, maxsus qurilish va montaj.

*Montaj* (GOST 23887—79)- buyumni, mashinani yoki uni qismlarini ishlatish uchun joylashtirish.

*Mexanomontaj* ishlariga texnologik, energetik, ko‘tarish-tashish va nostandart jixozlarni, quvurlarni va metallokonstruksiyalarni joylash ishlari kiradi.

*Jixozlarni montaji* – kompleks ishlar bo‘lib, bunda mashina va agregatlarni yig‘ish, ularni loyixada ko‘rsatilgani bo‘yicha ishchi xolatda joylash, yig‘ish, texnologik qatorga birlashtirish, salt xolatda tekshirish, yuklama bilan sinash kabilar kiradi.

Montajni texnologik jarayonlari asosiy, tayyorlanuvchi va ishga tushirib rostlovchilarga bo‘linadi. ( Mashina detallari va ko‘tarish-tashish fanlarii materiallariga murojat qilinsin).

Bunda takelaj ishlari muxim rol o‘ynaydi, ya’ni jixozlarni montaj maydonida gorizontal, vertikal va qiya xolda transportirovka qilish kiradi.

Jixozlarni sozlash (rostlash)- bu texnologik jixozlarni ma’lum texnologik jarayonlarni bajarishga tayyorlash bo‘lib, priborlar, nazorat moslamalari, avtomatik sozlash va boshqarish amalga oshiriladi.

Bir nechta birlik jixozlarni, quvirlarni, metallokonstruksiyalarni montaj qilish joyi montaj zonasi deyiladi. U montajni amalga oshiradigan ishchini mexnat joyi xisoblanadi. Bu ishlar montaj maydonida amalga oshiriladi.

## 6.3. Ishlab chiqarishda montaj ishlarini.

Ma’lum usul va metodlarini qurilish joyidan kelib chiqib tanlanadi. Bunda ochiq, yopiq va aralash usullardan foydalaniladi.

*Ochiq usulda* xamma ishlar lozim bo‘lgan jixozlarni va konstruksiyalarni fudament, yer osti qurilmalari binoni karkasini ko‘tarilguncha amalga oshiriladi. Keyin esa uni konstruksiyalari va jixozlar montaj qilinadi.

*Yopiq usul* esa. ikki etapda amalga oshiriladi: birinchidan binoni karkasini montaj qilish uchun yer va beton ishlari, ikkinchidan yopiq binoda texnologik jixozlar uchun fundament-beton ishlari bajariladi, so‘ngra jixozlar joylashtiriladi.

*Aralash usul* esa jixozlar fundamenti proleti farqli bo‘lgan sexlarda amalga oshiriladi.




Rasm 6.1. Buyumni umumiy yig‘ishni texnologik sxemasi

Montaj bloklarini tayyorlash yoki jixozlarni yiriklashtirishda uzelli va umumiy yig‘ish ishlarini bajaradilar. Umumiy yig‘ish- yig‘ish, montaj bloki birligi xisoblanadi (rasm 1). Buyumni yig‘ish elementi bazaviy deyiladi. Umumiy yig‘ishni sxemada to‘g‘ri chiziq bilan ifodalanadi. Uni bazaviydan yig‘ilgan obyektgacha o‘tkaziladi. Bunda yuqorida buyumga qrashli detallarni shartli belgilari, a pastda esa bevosita buyumga kiruvchi qismlar keltiriladi

**Nazorat savollari**

1. Servis xizmatida montaj ishlarini maqsadi nimada ?

2. Montaj va tyexnologik jarayonlarni keltiring.

3. Montaj ishlarini bajarish usullari va yo‘llarini maqsadi nimada?

4. Montajda buyumni umumiy yig‘ishni texnologik sxemasini keltiring.